

## **ALLOMALAR ME'ROSI – AVLODLARGA VASIYAT**

**Mualliflar: Tolibjonov Qudratjon Po'latjon o'g'li**

### **ANNOTATSIYA**

O'rta Osiyo tarixiy voqealarga g'oyat boy o'lka bo'lishi bilan birga azaldan ilmfan, madaniyat va ma'naviyatning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lka dunyoga ma'naviyat va ma'rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug' zotlar, davlat arboblari tarbiyalab bergan. Umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodrimiz bevosita ishtrok etganlar, uning taraqqiyyoti va boyishiga ulkan hissa qo'shganlar. O'rta Osiyoning madaniy merosi jahon madaniyati va ma'rifatining ajralmas tarkibiy qismidir.

**Kalit so'zlar:** yuksak, ma'naviyat, yoshlar, tarbiya, O'rta Osiyo, alloma, ilmiy, meros.

### **Kirish**

Endilikda jahon ma'naviyati va ma'rifati saltanatida o'z o'rnlariga ega bo'lgan ulug'larimizni teran anglash, o'rganish va ulug'lash vaqti keldi. Afsuski salkam 150 yillik mustamlakachlik, 70 yillik totaritar tuzum hukumronligi davrida Respublikamuz yosh avlodi, brinchi Prizidentimiz Islom Karimov aytganidek, "...necha yillar bizni tariximizdan, dinimizdan, ma'naviy merosimizdan g'ofil etishga urundilar – natijada ula o'z xalqining tarixini, uning boy tabiiy-ilmiy, ijtimoiy falsafiy, axloqiy madaniyatidan bahramand bo'lish, o'rganishdan mahrum qilib keldi"[1]. Mustaqillik tufayli o'rganish tahlil etish imkoniyatiga ega bo'lgach, ona zaminimiz ma'naviy merosini chuqurroq o'rganish biz yoshlarning vazifamiz, o'z tarxini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi.

IX-XV asirlarni Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarda shartli ravishda "Renessans" (uyg'onish) davri deb atashadi. Ma'naviyat va ma'rifatning g'oyat gullab-yashnashi bu davir uchun xarakterli bo'lgan. Bu davirda qomusiy ilim egalari, ajoyib shoirlar, buyuk davlat arboblari yetishib chiqqan. Dunyoviy fanlarning tez sur'atlarda taraqqiy etishi keng tarjimonlik faoliyatiga tasir etdi. Bu jarayon ayniqsa halifa Ma'mun davrida (813-133 yy.) Bag'dodda "Bayt-ul-hikma" (Donolar uyi) tashkil etilgan paytda tezlashdi. Yunon falsafasi va tabobati, hind hisobi, al-ximiya va ilmu nujumga oid asarlar arab tiliga o'girildi. Bunda markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlar al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Farobiy, Ibin Sino, al-Beruniy kabi mutaffakirlar ham katta ro'l o'ynadilar.

O'rta Osiyoda tabiiy-ilmiy tafakkuri rivojinig boshlanishi buyuk allomalr al-Farg'oniyy va al-Xorazmiylar nomi bilan bog'liqdir.Ularning xar ikkovi ham Bag'doddagi "Bayt-ul-hikma"ning yetakchi ilim sohiblaridan sanalgan.*1998 yilda Farg'oniyy tavalludining 1200 yilligi yurtimizda keng nishonlandi.Uning vafoti 861 yildir.* U mashhur falakkiyotshunos olim.Uning asosiy asarlari "Astronomiya va astralyabiyaga kirish","Falakdan bo'ladigan sabablar","Astralyabiya fani usullari","Osmon harakatlari va yulduzlar ilmi "va boshqalardir.Farg'oniyyning "Astronomiya asoslari"kitobi o'sha davirdagi astronomiya sohasidagi bilimlarning qomusi bo'lan.Unda qadimgi falakkiyotshunoslik bilimlari,uning qoidalari,usullari bayon qilingan.Asar XII asrdayoq lotin tiliga tarjima etilib,ko'p asrlar davomida Yevropada astronomiya bo'yicha qo'llanma,darslik sifatida xizmat qilib kelgan.U Yevropada al-Fraganus nomi bilan mashhur bo'lgan.

Al-Xorazmiy (780-850 yy.) Sharqning buyuk mutafakkiri,qomusiy olimidir.Uning ilmu-nujum,geodeziya,geografiya va ayniqsa riyoziyot sohasidagi xizmatlari beqiyosdir.U arab,hind,lotin,yunon,fors tillarini bilgan.

Xorazmiy bir qancha kitob va risolalarning muallifidir.Bulardan eng mashhuri "Kitob al-jabr va al-muqobala" asaridir.Bu asar riyoziyotda yangi mustaqil fan algebraning vjudga kelishiga zamin bo'ldi.U tenglamalarni yechishning ikki usulini al-jabr,ya'ni qarama-qarshi ishoralarni yagona musbat ishoraga keltrish va al-muqobala,ya'ni bir xil hadlarni qarama-qarshi qo'yishni kashf qildi.Sharq falsafiy,ijtimoiy,axloqiy fikri rivojini Abu Nasr Farobiysiz (873-950) tasavvur etish qiyin.U "Sharq Aristoteli","Ikkinchi muallim" degan unvonga sazovor bo'lgan mutafakkirdir.*Sharqda qadim Yunonistonning eng mashxur faylasufi Aristotel "Birinchi muallim deb yuritilgan.Farobiy ko'p tillarni bilgan qomusiy olimdir.U yaratgan asarlarning umumiy soni 160 ta bo'lib,uni ikki guruhga ajratish mumkin 1) qadimgi Yunon faylasuflari va tabiyatshunoslarini – Aristotel,Platon,Evklid,Galen va boshqalarning ilmiy merosini tarjima qilish,sharhlash,targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlagan asarlar; 2)o'rta asr faninig tabiiy,ijtimoiy-falsafiy sohalariga oid risolalar.Masalan: Aristotelning – "Osmon sistemasi"kitobiga izoh,"Metafizika" asariga izoh,"Etika"kitobiga sharh,"Substansiya" haqida so'z,"Masalalar manbai","Qonunlar haqida kitob","Bo'shlik haqida kitob","Musiqqa haqida so'z","Fozil odamlar shahri" va boshqalarni ko'rsatish mumkin.*

Farobiyning fikricha insonnin va jamoatning g'alabaga erishuvi,yaxshilikni qo'lga kritish,axloqiy va aqliy mukammallikka ko'tarilishi inson va jamoaning o'z qo'lidadir.Udavlatni sozil va johil davlatlarga bo'ladi.Fazilatli shaharlarda ilim-fan,falsafa axloq-ma'rifat birinchi o'rinda bilmog'i lozim deb biladi.shunda jamiyat

yetuklikka erishadi. *Fozil shahar boshlig'i blimli, haqiqatni sevuchi yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qarash, adolatni yaxshi ko'ruvchi va adolat uchun kurashuvchi bo'lishi kerak deb ataydi. Farobiy insonni kamoloti uchun xizmat qilgan, hayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarini yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamolotiga to'sqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchlik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb hunarga ega bo'maslik kabi nuqsonlarni yomonlik deb kishilarni bundan ogohlantiradi.*

Jahon madaniyati va ma'rifatiga katta hissa qo'shgan, Sharq va Yevropada "Sharq-ur-ra'is – olimlar boshlig'i" unvoniga ega bo'lgan allmo Abu Ali ibn Sinonig (980-1037) ilmiy merosi biz uchun bebaho xazinadir. U o'z umri davomida 450 dan ortiq asarlar yaratgan. Uning "Tib qonunlari" nomli 5 jildan iborat kitobi asrlar davomida Sharq va Yevropada meditsina bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Ibin Sino yoshligida zo'r mehnat, izlanish, g'ayrat bilan ilimlarni o'rganishga kirishgan. U bu haqida shunday yozadi: uyquga ketgan vaqtimda ham o'ngimdagi masalalarni ko'rardim. Shu holatda ko'p masalalar tushumda menga ayon bo'lardi... shu zayilda hamma ilimlarni mustahkam egallay oldim. Insonning imkoniyat darajasida egallaydigan darajada bilimni egallay oldim. Aristotelning "Metafizika"sini" qirq bir marta qayta o'qidim". U menga hatto yod bo'lib ham qoldi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, men uni va uning maqsadlarini tushuna olmasdim – deb yozadi tarjimai holida. Ibin Sino bu muammoni Farobiyning Aristotel "Metafizika" siga yozgan sharhini o'qib hal qiladi.

XI-XII asrlar ma'naviyati va ma'rifati rivojida XI asrning ko'zga ko'ringan shoiri Yusuf Xos Hojib ham katta o'rin tutadi. Yusuf Xos Hojib o'zining yagona dostoni bo'mish "Qutadg'u bilig" bilan mashhurdir. Bu asar 1069 yilda yozilgan bo'lib, uni shoir Qashg'ar hokimi Sulymon Asrlon qoraxonga bag'ishlagan. Shu asari uchun unga Xos Hojib ya'ni buyuk xonning maxsus maslahatchisi unvoni berilgan. *Doston qahramonlari – hokim Kuntug'di adolat ramzi, vazir Oyto'di baxt ramzi sifatida vazirning o'gli O'gdumlish aqil ramzi sifatida tasvirlanadi.*

Mutaffakir inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan muloqotda va foydali mehnatda chinakam kamolotga yetadi degan g'oyani ilgari suradi. Insonga foyda keltirmaydigan inson – o'likdir deb takidlaydi. Jamiyatda mehnat ahli – dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar hal qiluvchi ro'l o'ynaydi deb uqtiradi. *Shuning uchun, Yusuf Xos Hojib xokimga adolatli bo'lish, o'zboshimchalik va qonunsizlikka yo'l qo'ymaslikni maslahat beradi.*

Yusuf Xos Hojib ilim va ma'rifatni jamiyatning taroqqiyotiga, gullab yashnashiga olib keluvchi kuch deb bilib, ularni egallashga da'vat etgan. U kishini zulmat ichidagi uyga, bilimni esa ana shu uyni nurafshon etuvchi mash'alaga o'xshatadi. Shoir kishilarni so'zlaganda o'ylab gaprishga chaqiradi. So'zinga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin, tlinga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin. Ma'nodor so'z donolik alomati, bemani so'z mahmadonagarchlik axmolik alomatidir. Shu bois odam ko'proq quloq solib, kam gapirishi kerak deb aytadi. Yusuf Xoj Hojib shuningdek insonning tashqi qiyofasi uning ichki ma'naviy dunyosiga mos bo'lishi katta ahamiyat beradi. Mutafakkir yolg'onchi, munofiq kishilar jamiyat uchun zararli, bunday kishilardan uzoq bo'lish kerak deydi.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394-1439) o'zidan ulkan ilmiy va madaniy meros qoldirdi, "Ziji jadidi Ko'ragoniy" (Yangi ko'ragon astranomik jadvallari) "Ulug'bek ziji" buyuk olimning dunyoga mashxur asari. Ulug'bek Samarqandda observatoriya va madrasa qurdi, o'z akademiyasini tashkil qildi. O'z shogidlari bilan mingdan ortiq yulduzlarni o'rganib chiqdi ulardan "yulduzli osmon" xaritasini tuzdi. Ulug'bek akademiyasida olimlar faqat astronomiya bo'yicha emas, balki matematika, falsafa, tarix va boshqa fanlarga oid tadqiqotlar ham olib borishgan. Ulug'bek akademiyasida ihlagan atoqli astranom Ali Qushchi (Mavlono Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi (1403-1474) o'zidan matematika va astronomiyaga bag'ishlagan dunyoga mashhur ilmiy ishlarini qoldirdi. U yil fasillarining o'zgarishini yerni quyoshga yaqinlashishi natijasida quyosh nurlrining yer sathiga ta'siri bilan bog'liq deb hisoblagan, quyoshning tutilish jarayonini ilmiy nuqtai nazardan aniqlagan. Ali Qushchining asarlari XVI-XVII O'rta va yaqin Sharqda astarnomiya va matematika rivojiga salmoqli ta'sir qilgan.

Mirzo Ulug'bek, al-Koshiy, Ali Qushchi sonlar nazariyasi ravnaqiga salmoqli hissa qo'shishdi va astranomik kuzatuv bilimlarini yanada yuqori darajada ko'tarishdi. 1428-1429-yillarda Ulug'bek radiusi 40 metr kvadrat bosh uskunasi bo'lgan o'lchamlarni tengsiz noyob astranomik rasadxona qurdi. Samarqandda 30 yillik kuzatishlar asosida tuzilgan 1038 yulduz katalogi uzoq yillar dunyoda tengsiz bo'lib qoldi. Ulug'bek astronomiya maktabi yutuqlari Sharq va G'arb fani yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning ilmiy asarlari dunyoning ko'p tillariga tarjima qilindi, Yevropa va Amerikada keng tarqaldi. Mirzo Ulug'bek jahon fani tarixida Tixo Brage, Logann Kepper, Nikolay Kopernik va Galileo Galiley bilan bir qatorda turadi. M.V Lomonosov nomidagi MDU katta zalida barcha davirlar olimlariga bag'ishlangan tarixiy xotira gallareyasida o'rta asirlarning mashxur olimi Mirzo Ulug'bekning portreti haqli ravishda o'ziga mos joyni egallagan. O'zbekistonnig bir qator shaharlari va Belgiyada

Mirzo Ulug'bekka haykal o'rnatilgan, qadimiy Samarqand observatoriyasiga, qator universitetlarga, jumladan O'zbekiston Milliy universitetiga, maktablarga, shaharga qarashli tumanlarga va O'zbekistondagi fizik-yadroshunoslik qo'rg'oniga uning nomi berilgan.[2].

Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 25-dekabr kuni yoshlar forumida ishtrok etdi. Prizidentimiz o'z nutqida yoshlarimizni ulug' allomalarimizdan namuna olgan holda bilim olishga undadi. Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiyning bir xikmati bor: "So'z – gul, ish – meva". O'ylaymanki, bugun belgilab oladigan rejalarangiz qanchalik pishiq-puxta bo'lsa, ishingiz ham shunchali yaxshi samara beradi, - dedi Shavkat Mirziyoyev. Sizlar ko'p kitob o'qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o'tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg'oniyalar, Beruniy va Ibin Sino, Ulug'bek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk avlodlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda.[3]

Prizidentimiz o'z so'zida davom etar ekan, bu o'rinda qomusiy olim Muhammad Xorazmiy asos solgan ilim – "algoritmi"ni eslashning o'zi kifoyaligini ta'kidladi. Ushbu ulug' zotning beqiyos xizmatlarini insoniyat hamon minnatdorlik bilan eslamogda. Uning olam shuvul kashfiyotalri bugungi axborot texnologiyalarini yatarishda ham asos bo'lgan.

### **Xulosa**

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak allomalarimizning bizlarga qoldirgan ilmiy me'rosi ham buyukdir. Ushbu ilmiy me'rosdan hozirgi zamon bilan uyg'unlashtirilgan holda foydalanish har bir bilim oluvchi uchun muhimdir. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rinni egallaydi. Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. Sharq. 1998-yil.
2. N.A. Jumayeva. O'rta osiyo allomalarining ilmiy me'rosi. Uslubiy qo'llanma. Buxoro, "Durdona" nashriyoti. 2013.
3. [reviev.uz/uz/712](http://reviev.uz/uz/712) Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlari forumida yoshlar uchun muhim bir yanglikni yetkazdi.
4. Rasulov. A.R (2021). O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari faoliyati, o'zgarish va muamollar. Academic Research in Educational Sciences, 2(2), 257-264.